

**JAXON TAJRIBASI SHAXARSOZLIKDA AN'ANAVIY KAMQAVATLIK
TADBIRKORLIK UYLARINI XUDUDDA JOYLASHUVI OMILLARI.**

Abduraxmonov Sevinchbek Baxtiyor o'g'li

Samarqand Davlat Texnika universiteti

E-mail: sevinchbek19042003@gmail.com


Annotatsiya. *Mazkur maqolada jahon tajribasi asosida shaharsozlikda an'anaviy kamqavatli tadbirkorlik uylarini hududda joylashtirishning asosiy omillari tahlil qilingan. Tadqiqotda kamqavatli turar joy va tadbirkorlik obyektlarini shahar hududida oqilona joylashtirish, ularning transport yo'llari, ijtimoiy infratuzilma, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari bilan o'zaro bog'liqligi hamda aholining kundalik ehtiyojlariga mosligi o'rganilgan. Turli mamlakatlarning shaharsozlik tajribasi asosida hududning tabiiy-iqlimiy sharoiti, relyefi, aholi zichligi, transport qulayligi, funksional zonalashtirish, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik kabi omillarning kamqavatli tadbirkorlik uylarini joylashtirishdagi ahamiyati aniqlangan. arxitektura-shaharsozlik yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *shaharsozlik, an'anaviy kamqavatli uylar, tadbirkorlik uylari, hududiy joylashuv, joylashtirish omillari, funksional zonalashtirish, arxitektura-rejaviy yechimlar, transport infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, tabiiy-iqlimiy sharoit, ekologik barqarorlik.*

Kam qavatli tadbirkorlik uylarining hududiy joylashuvi yashash, mehnat, xizmat ko'rsatish jarayonlarining shahar tuzilmasida qanday bog'lanishini aniqlovchi shaharsozlik mezon sifatida qaraladi. Bu yondashuvda uy tadbirkorlik faoliyatining ichki makoni bo'lish bilan birga, ko'cha, piyoda yo'nalishi, xizmat nuqtalari, mahalla markazi va kundalik harakat tizimi bilan bog'langan hududiy birlik sifatida baholanadi. Xorijiy tajribada ham uyda ishlash faqat xona yoki bino ichidagi faoliyat emas, balki turar-joy hududining iqtisodiy faollik bilan qayta bog'lanishi sifatida talqin qilinadi [23]. Hududiy joylashuvni tahlil qilishda birinchi mezon yashash va mehnat funksiyalarining shahar ichidagi yaqinlik darajasidir. Samarqand an'anaviy muhitida tadbirkorlik uyi mahalla ko'chasi, guzar, savdo yo'nalishi yoki ichki xizmat aloqalariga yaqinlashgan holda shakllanadi, biroq bu yaqinlik oilaviy yashash hududining to'liq ochilib ketishini anglatmaydi. Ikkinchi mezon aralash funksiyali muhitning shakllanishidir. Aralash funksiyali muhit deganda turar-joy, mayda savdo, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, qisqa muddatli mijoz aloqasi va kundalik maishiy ehtiyojlar bir-biridan uzilmagan shahar bo'lagi tushuniladi. Xorijiy home-based business tadqiqotlarida bunday muhit kichik tadbirkorlikni uyga yaqin joyda rivojlantirish, xarajatni kamaytirish va mahalliy

xizmatlar tarmog'ini kuchaytirish omili sifatida ko'riladi Rasm. 1 [25]. Samarqand sharoitida aralash funksiyali muhitni baholashda yirik tijorat ko'chasi bilan mahalla ichki ko'chasi bir xil mezon bilan o'lchanmasligi lozim. Asosiy savdo yo'nalishiga yaqin joylashgan uyda mijoz oqimi, mahsulot chiqarish va tashqi aloqa kuchliroq bo'lsa, mahalla ichkarisidagi uyda xizmat ko'rsatish ko'proq qo'shnichilik, ishonchli mijozlar va past intensivlikdagi almashinuvga tayanadi. Shu sabab joylashuv tahlili faoliyat ko'lami, ko'cha turi, piyoda kirish imkoniyati va qo'shnichilik muhitiga ta'sir darajasi o'rganiladi [28]. Uchinchi mezon mahalla yoki qo'shnichilik hududi bilan bog'liqligidir. Neighbourhood atamasi bu yerda mahalla yoki qo'shnichilik hududi ma'nosida qo'llanadi va uy tadbirkorligi uchun yaqin mijozlar, kundalik ehtiyojlar, xizmat radiusi hamda ijtimoiy nazorat muhitini bildiradi. Xorijiy tajribada uyga yaqin xizmatlar, kichik bizneslar va qisqa masofali iqtisodiy aloqalar orqali izohlansa, Samarqandda bu mezon guzar, qo'shnichilik tartibi, mahalla ko'chasi va oilaviy xususiylik bilan birgalikda baholanishi zarur [33]. To'rtinchi mezon ko'cha bilan aloqa darajasidir. Kam qavatli tadbirkorlik uyi shahar tuzilmasida samarali ishlashi uchun uning kirish nuqtasi,

Figure 1. Home-based businesses as a proportion of all businesses (source: based on survey of members of the Federation of Small Business)



Rasm. 1 Buyuk Britaniyada home-based businesslarning barcha bizneslar tarkibidagi hududiy ulushi ko'rsatilgan xarita. **Manba:** Colin Mason, Sara Carter va Stephen Tagg, *Invisible Businesses: The Characteristics of Home-Based Businesses in the United Kingdom*, 2008.

mahsulot almashinuvi, mijoz bilan qisqa muloqot qilish joyi va xizmat harakati ko'cha tizimi bilan mos kelishi kerak. Xorij tajribasida faol fasad va ochiq kirish iqtisodiy ko'rinishni kuchaytiradi, Samarqandda esa bunday ochiqlik darvozaxona, dahliz, old qism yoki ko'cha bo'yidagi nazoratli aloqa orqali mahalliy xususiylik talablariga moslashtirilishi lozim [35]. Beshinchi mezon transport va piyoda harakatining joylashuvga ta'siridir. Uy tadbirkorligi mijoz kelishi, buyurtma olib ketish, xom ashyo kiritish yoki mahsulot chiqarish bilan bog'langanligi sababli u butunlay yopiq ichki hududda emas, boshqariladigan kirish imkoniyatiga ega shahar bo'lagida joylashishi kerak. Xorij yondashuvlarida piyoda oqimi, xizmat kirishi va ko'cha fronti iqtisodiy faollikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida qaraladi, Samarqand uchun

esa bu ko'rsatkichlar tor mahalla ko'chalari, tarixiy to'qima va transport yuklarni oshirmaslik talabi bilan cheklanadi [35]. Oltinchi mezon landshaft va muhit sifatidir. Samarqand tajribasida hovli, daraxt, ariq, soyalanish, suv va yarim ochiq makon uy ichidagi mikroiklim bilan birga mahalla ko'chasi hamda piyoda yurish sharoitiga ham ta'sir qiladi.



5.22

Rasm. 2 Chung Cu turar-joy majmuasida Block A ustida qo'shimcha beshinchi qavat konstruksiyasi va Block C dagi qo'shimcha xona qurilishi ko'rinishlari. **Manba:** Huynh Tran Buu Loc va Dinh Quoc Phuong, mualliflar fotosurati, 2018.

Xorijiy courtyard, patio va ekologik urban design tajribalarida ham yashil qatlam, tabiiy shamollatish va soyali yurish yo'nalishlari yashash va mehnat muhitining barqarorligini oshiruvchi hududiy omil sifatida baholanadi [23]. Yettinchi mezon zichlik va yer maydonidan foydalanishdir. Kam qavatli tadbirkorlik uyi zich tarixiy to'qimada joylashganda ko'cha bo'yi faol qism, ichki hovli, orqa xo'jalik hududi va yuqori qavat imkoniyatlari o'zaro muvofiqlashtirilishi zarur. Xorij tajribalarida yer tanqisligi ko'p vazifali makon, vertikal ajratish va moslashuvchan xona tizimi orqali boshqariladi, Samarqandda esa bu masala hovli markazli tuzilmani yo'qotmasdan, faoliyat hajmini mahalla ko'lami bilan moslashtirish orqali baholanishi kerak [34].

Kam qavatli tadbirkorlik uylarining hududiy joylashuvida transport va kirish imkoniyati uy ichidagi faoliyatning shahar bilan bog'lanish darajasini belgilaydi. Uyda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo jarayoni mavjud bo'lsa, xom ashyo olib kirish, mahsulot chiqarish, mijoz kelishi va qisqa muddatli to'xtash ehtiyoji paydo bo'ladi. Xorijiy tajribalarda bu omil turar-joy hududini ortiqcha yuklamasdan iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash mezon sifatida baholanadi [28].

Asosiy yo'llarga yaqin joylashuv tadbirkorlik uyining ko'rinishi, mijozga yetib borish qulayligi va mahsulot almashinuvi imkoniyatini oshiradi. Ikkinchi darajali



Figure 7. (Left) New structures at Block A, created a fifth level, (Right) Additional 'room' at Block C (Photographed by the authors, 2018).

ochiq muhit yaratadi. Xorijiy tajribada ham kichik biznes va turar-joy funksiyalari aynan shunday o'rta intensivlikdagi ko'cha bo'laklarida barqarorroq ishlashi mumkinligi qayd etiladi Rasm. 2 [35]. Samarqand tarixiy mahalla tuzilmasida tor

Rasm. 3 Tarixiy bozor ko'chasida vaqtinchalik savdo rastalari, piyodalar oqimi va jamoat makoni aks etgan ko'rinish. **Manba:** Cliff Moughtin, *Urban Design: Street and Square*, Architectural Press, 2003.

ko'chalar kam qavatli tadbirkorlik uylarini joylashtirishda muvozanatli hududiy qatlam sifatida qaraladi. Bunday ko'chalar yirik transport oqimidan nisbatan himoyalangan bo'lib, mijoz kelishi, piyoda harakati va xizmat kirishi uchun yetarli darajada kengligi, burilish imkoniyati, yuk tushirish nuqtasi va piyoda xavfsizligi alohida ko'rilishi kerak [31]. Piyoda yo'nalishlari transport tahlilining alohida qismi hisoblanadi, chunki uy tadbirkorligining ko'p turlari kundalik yaqin masofali mijozlarga tayanadi. Guzar, bozorcha, jamoat transporti bekati, masjid, maktab yoki maishiy xizmat nuqtasiga olib boruvchi yurish yo'llari uy tadbirkorligi uchun tabiiy

ko'chalar va ichki yo'laklar uyga yaqinlik, qo'shnichilik nazorati va piyoda harakati uchun qulay bo'lgan, lekin ular katta hajmdagi transport yoki yuk tashishga mo'ljallanmagan. Shu sabab uy tadbirkorligi joylashuvi baholanganda ko'cha

mijoz oqimini shakllantirishi mumkin. Xorij tajribasida ham kichik xizmat va uyga asoslangan bizneslar piyoda yetib borish mumkin bo'lgan masofada samaraliroq ishlaydi Rasm. 3 [33]. Transport kirishi xom ashyo, mahsulot, asbob-uskunalar yoki xizmat ko'rsatish vositalari harakati bilan bog'liq bo'lsa, piyoda kirishi mijoz, qo'shni va kundalik foydalanuvchi harakatini bildiradi. Yuk olib kirish masalasi kam qavatli tadbirkorlik uylarida ko'pincha ko'zga tashlanmaydigan, ammo muhim shaharsozlik cheklovidir.



5.25

Rasm. 4 Tarixiy shahar muhitida kam qavatli binolar, savdo fasadlari va ko'cha-maydon aloqasi aks etgan ko'rinish. Manba: Cliff Moughtin, *Urban Design: Street and Square*, Architectural Press, 2003.

Hunarmandchilik, mayda ishlab chiqarish, oziq-ovqat tayyorlash, ta'mirlash yoki savdo faoliyati xom ashyo va tayyor mahsulot harakatini talab qiladi [28].

Mijoz qatnovi joylashuvga ta'sir qiluvchi ikkinchi asosiy omildir. Agar uy tadbirkorligi faqat buyurtma tayyorlash yoki masofaviy xizmatga asoslangan bo'lsa, uning transport ehtiyoji pastroq bo'ladi; agar u mijoz qabul qilsa, savdo qilsa yoki xizmat ko'rsatsa, kirish nuqtasi ko'cha tizimi bilan aniq bog'lanishi kerak. Samarqandda bunday aloqani kuchaytirish ko'cha tomonga yaqin qabul

yoki savdo bo'g'inini me'yorida tashkil etish orqali baholanishi lozim Rasm. 4 [30]. Qisqa muddatli to'xtash joyi ham transport omillaridan biridir. Xorij amaliyotida mijoz avtomobili, yetkazib berish vositasi yoki xizmat mashinasi turar-joy ko'chasini band qilib qo'ymasligi kerakligi alohida rejalashtirish talabi sifatida ko'riladi. Samarqand sharoitida tor tarixiy ko'chalarda bu talab yanada muhim, chunki bitta uy faoliyatining ortishi qo'shni uylar kirishi, piyoda yurishi va umumiy ko'cha tartibiga bevosita ta'sir qilishi mumkin [35].

Kam qavatli tadbirkorlik uylarining hududiy joylashuvda piyoda harakati ko'cha bilan iqtisodiy aloqa bevosita shaharsozlik omili hisoblanadi. Uy tadbirkorligi xaridor, buyurtmachi, qo'shni yoki xizmatdan foydalanuvchi bilan muntazam aloqaga ega bo'lsa, uning ko'cha fronti piyoda oqimiga nisbatan aniq joylashishi kerak. Xorij piyoda yo'nalishi, kirishlar ritmi va faol birinchi qavat shahar makonining iqtisodiy hayotini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar qatorida baholanadi [35]. Piyoda harakati kuchli bo'lgan joyda uy tadbirkorligi ko'proq mijoz bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qiluvchi faoliyatga mos keladi. Bunday hududlarda mayda savdo, ta'mirlash, hunarmandchilik buyurtmasi, maishiy xizmat yoki qisqa muddatli qabul funksiyalari ko'cha fronti bilan bog'lanishi mumkin. Xorij tajribasi bu aloqani turar-joy ichidagi ish faoliyatini shahar ko'rinishiga chiqaruvchi vosita sifatida ko'rsatsa, Samarqandda u darvoza, dahliz, old xona yoki tashqi qabul bo'g'ini bilan chegaralangan holda ishlaydi [23].

Piyoda oqimining hajmi gavjum yo'nalish va iqtisodiy imkoniyatni oshiradi, lekin shovqin, to'xtash, tartibsiz savdo, piyoda yo'lining torayishi va qo'shni uylarning



Rasm. 5 Shahar ko'chasida savdo-xizmat fasadlari, piyodalar harakati va ko'cha bo'ylab shakllangan jamoat makoni ko'rinishi. **Manba:** Cliff Moughtin, *Urban Design: Street and Square*, Architectural Press, 2003.

bezovta bo'lishi kabi muammolarni kuchaytiradi. Samarqandda mahalla ichki ko'chasi, guzar atrofi va asosiy savdo yo'lagi turlicha shaharsozlik xususiyatiga ega bo'lgani uchun ularning faolligi alohida mezonlar bilan baholanishi zarur **Error! Reference source not found.** [35]. Fasadning iqtisodiy vazifasi tadbirkorlik turi bilan bog'liq. Xizmat ko'rsatish faoliyatida kirish nuqtasi va mijoz kutish joyi asosiy ahamiyatga ega bo'lsa, savdoda mahsulotni ko'rsatish, hunarmandchilikda esa buyurtma qabul qilish va tayyor mahsulotni topshirish muhimroq bo'ladi. Ho Chi Minh City tajribasida uyga asoslangan biznes turar-joy makonlarini ko'cha bilan faol bog'lagan holda qayta o'zgartirishi ko'rsatiladi, Samarqand uchun esa bunday o'zgarishlar hovli va oilaviy hududga bosim bermaydigan darajada baholanishi kerak [30]. Samarqand muhitida ko'cha va piyoda harakati guzar, masjid, bozorcha, maktab yoki kundalik xizmat nuqtalari bilan bog'langanda yanada aniqroq shaharsozlik ahamiyatiga ega bo'ladi. Bunday yo'nalishlarda uy tadbirkorligi kundalik yurish marshrutiga xizmat qiluvchi kichik iqtisodiy bo'g'in sifatida ishlaydi. Xorij tajribasida ham piyodaga qulayligi, ko'rinadigan kirish va xizmatga yaqinlik mahalliy iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida qaraladi [35].

H. T. B. LOC AND D. Q. PHUONG

Figure 2. The area of Chung Cu Nguyen Thien Thuat are highlighted in red (plan retrieved from the Planning Department of People's Committee of Ward 1, District 3, 2018. Reproduced by the authors, 2018).



Rasm. 6 Chung Cu Nguyen Thien Thuat turar-joy majmuasining reja sxemasi va bloklar joylashuvi. **Manba:** Huynh Tran Buu Loc va Dinh Quoc Phuong, mualliflar tomonidan qayta ishlangan reja, 2018.

Kam qavatli tadbirkorlik uylarining hududiy joylashuvida ijtimoiy infratuzilma va xizmat markazlariga yaqinlik asosiy shaharsozlik mezonlaridan biri hisoblanadi. Bunday uylar bozor, guzar, mahalla yoki qo'shnichilik hududi markazi, masjid, maktab, jamoat maydoni va maishiy xizmat nuqtalari bilan bog'langanida kundalik ehtiyojlar tizimiga kiradi. Xorij tadqiqotlarida ham uy tadbirkorligi alohida iqtisodiy obyekt emas, yashash hududi ichidagi xizmat, bandlik va lokal almashinuv tarmog'i bilan bog'langan faoliyat sifatida baholanadi [28].

Bozorga yaqinlik tadbirkorlik uyining mijoz bilan aloqasini kuchaytiradi, ammo bu omil barcha faoliyatlar uchun bir xil darajada zarur emas. Savdo, ta'mirlash, buyurtma qabul qilish va kichik xizmat ko'rsatish faoliyatlari bozor yoki bozor yo'nalishiga yaqin joyda yuqoriroq shaharsozlik samaradorligiga ega bo'lishi mumkin. Xorijiy tajribada ham kichik bizneslar ko'proq xaridor oqimi mavjud bo'lgan, piyoda yetib borish qulay bo'lgan va kundalik ehtiyojlar jamlangan hududlarda barqarorroq ishlaydi [26]. Guzar Samarqand sharoitida yirik savdo markazidan farqli ravishda mahalla ichki hayoti, xizmat, muloqot va kundalik harakatlarni bog'lovchi mahalliy markaz vazifasini

bajaradi. Kam qavatli tadbirkorlik uyi گزار atrofida joylashganda uning faoliyati mahalla ehtiyojiga yaqinlashadi, lekin mijoz oqimi yirik ko'cha savdosi darajasiga chiqib ketmasligi kerak. Xorij tajribasida ham uyga yaqin xizmatlar kichik radiusdagi kundalik foydalanish bilan bog'langan holda tahlil qilinadi **Error! Reference source not found.** [33]. Masjid, maktab va jamoat maydoniga yaqinlik piyoda harakatini kuchaytiradi, lekin tadbirkorlik faoliyati uchun bu yaqinlik ehtiyotkor baholanishi lozim. Bunday joylarda odamlar oqimi doimiy yoki davriy ravishda ortadi, shu sabab uy tadbirkorligi kirish, kutish, shovqin, tozalik va xavfsizlik talablari bilan moslashishi kerak. Xorij yondashuvlarida jamoat nuqtalari atrofida kichik xizmatlar piyoda muhitini jonlantirishi mumkin [35]. Maishiy xizmat nuqtalariga yaqinlik uy tadbirkorligining kundalik talab bilan bog'lanishini kuchaytiradi. Nonvoyxona, ta'mirlash ustaxonasi, tikuvchilik, mayda savdo, oziq-ovqat tayyorlash yoki buyurtma asosidagi xizmatlar mahalla ichida qisqa masofali foydalanishga tayanadi. Xorij tajribasida ham tadbirkorlik uylari ko'pincha rasmiy biznes hududidan ko'ra yashash hududidagi ehtiyoj, oilaviy resurs va mahalliy mijozlar bilan bog'liq ishlaydi [31]. Ijtimoiy infratuzilma bilan bog'lanish tadbirkorlik uyi avtomatik ravishda ommaviy savdo obyektiga aylantirmasligi kerak. Samarqand muhitida tadbirkorlik uyilari گزار, maktab yoki bozorcha yaqinida joylashsa ham, faoliyat hajmi ko'cha kengligi, hovli tuzilishi, qo'shni uylar masofasi va mijoz kutish imkoniyati bilan cheklanadi. Xorijiy yondashuvlarda uchun ruxsat berishda mijozlar soni, ish vaqti, avtoturargoh, shovqin va qo'shnihilikka ta'sir birgalikda baholanadi. Ba'zi faoliyatlar mahalla ichida past intensivlikda samarali ishlaydi, ayrimlari esa bozor, گزار yoki faol piyoda yo'nalishiga yaqinroq joylashishni talab qiladi. Shaharsozlik jihatidan muhim masala faoliyat turini



Rasm. 7 Tarixiy shahar ko'chasida kam qavatli binolar, savdo-xizmat fasadlari va piyodalar harakati aks etgan ko'rinish.
Manba: Cliff Moughtin, *Urban Design: Street and Square*, Architectural Press, 2003.

tegishli infratuzilma darajasi bilan moslashtirishdir Rasm. 7 [35]. Xorijiy tajribada tadbirkorlik uyi ko'pincha bandlik, xizmatga yaqinlik va mahalliy iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida qaraladi. Samarqand sharoitida bu tajriba mahalla ichidagi kichik xizmatlarni saqlash, oilaviy mehnatni hududiy ehtiyoj bilan bog'lash va uzoq masofali qatnovga ehtiyojni kamaytirish nuqtayi nazaridan ahamiyatga ega. Biroq infratuzilmaga yaqinlik mijoz oqimi, transport bosimi va jamoat hududidan foydalanish tartibi bilan birga cheklanishi kerak

[27]. Mahalla iqtisodiyotida joylashuvning asosiy belgisi faoliyatning mijozga juda yaqin bo'lishidir. Tikuvchilik, ta'mirlash, oziq-ovqat tayyorlash, buyurtma asosidagi hunarmandchilik, mayda savdo yoki xizmat ko'rsatish uzoq masofali qatnovdan ko'ra mahalla ichidagi doimiy talab bilan samaraliroq bog'lanadi. Xorijiy tadqiqotlarida ham bunday faoliyatlar yirik biznes hududidan tashqarida, turar-joy muhiti ichida boshlanishi va mahalliy mijozlar orqali barqarorlashishi qayd etiladi [26]. Samarqandda

tadbirkorlik uyining hududiy samaradorligi mahalla markaziga qanchalik yaqinligi bilan emas balki mahalla ichidagi ehtiyojga qanchalik mos xizmat ko'rsatishi bilan ham belgilanadi. Ba'zi faoliyatlar guzar atrofiga yaqin joylashsa samaraliroq bo'ladi, boshqalari esa sokin ichki ko'chada buyurtma asosida ishlashi mumkin Rasm. 8 [26].



Rasm. 8 Shahar ko'chasida savdo-xizmat fasadi, ochiq kafe maydoni va piyodalar uchun qulay jamoat muhiti ko'rinishi. *Manba: Cliff Moughtin, Urban Design: Street and Square, Architectural Press, 2003.*

Samarqand sharoitida issiq-quruq iqlim landshaft omilini kam qavatli tadbirkorlik uylarini joylashtirishda muhim mezonga aylantiradi. Soyali ko'cha, daraxtlar, hovli ichidagi salqin qatlam, ariq yoki suv elementi bilan bog'langan mikroiklim uйда yashash va mehnat qilish qulayligini oshiradi[23]. Landshaft omili uy tadbirkorligining qaysi hududda samarali ishlashini ham belgilaydi. Agar uy mijoz qabul qilsa, mahsulot tayyorlasa yoki yarim ochiq makonda mehnat jarayonini tashkil etsa, uning joylashuvi havo almashinuvi, soya, changdan himoyalaniш va yozgi issiqlikni yumshatish imkoniyati bilan baholanishi kerak. Xorijiy tajribada uyda ishlash uchun muhit sifati faqat xona maydoni emas, tabiiy yoritish, shamollatish, tashqi makonga chiqish va sokin atrof bilan ham bog'lanadi [34]. Samarqand mahalla ko'chalarida daraxt va ariq tizimi piyoda harakati uchun qulay ekologik yo'lak vazifasini bajarishi mumkin. Bunday yo'laklar guzar, bozorcha, masjid, maktab yoki xizmat nuqtalariga olib boradigan kundalik yo'nalishlarni yumshatadi va uy tadbirkorligi bilan mijoz o'rtasidagi qisqa masofali aloqani qulaylashtiradi **Error! Reference source not found.** [35].



Kam qavatli tadbirkorlik uylarining hududiy joylashuvida zichlik va yer maydonidan foydalanish omili turar-joy, ish, xizmat, saqlash va mijoz aloqasi uchun ajratiladigan maydonlar o'rtasidagi nisbatni belgilaydi. Zich tarixiy to'qimada bunday uylar keng ochiq hududga emas, cheklangan uchastka, tor ko'cha, ichki hovli va ko'cha bo'yi faol qismning aniq tashkil etilishiga tayanadi. Xorij tajribalarida ham yer tanqisligi yashash va mehnat funksiyalarini bitta bino yoki kichik uchastka doirasida muvofiqlashtirish zaruratini kuchaytiradi [23]. Yer maydonidan foydalanishda gorizontaI kengayish imkoniyati cheklangan hududlarda vertikal yechimlar paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatda pastki qavat xizmat, savdo yoki ish aloqasiga yaqinroq bo'lib,

yuqori qavat yashash, mehmon qabul qilish yoki nisbatan xususiy vazifalarga ajratilishi ehtimoli ortadi. Xorij tajribalarida vertikal ajratish zich shahar sharoitida funksiyalarni bir-biriga xalaqit bermasdan joylashtirish usuli sifatida ishlatiladi [34]. Zichlik va yer maydonidan foydalanish mijoz oqimi bilan ham bevosita bog'liq. Agar kichik uchastkadagi tadbirkorlik uyi ko'p sonli mijoz qabul qilsa, ko'cha bo'yi kutish, kirishdagi tiqilish, transport to'xtashi va qo'shnilarga noqulaylik tug'diradi. Xorij tajribasida faoliyat hajmi, mijozlar soni, ish vaqti va ko'cha muhitiga ta'sir ruxsat berishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida ko'riladi **Error! Reference source not found.** [28].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov, M. Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi : Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir Z. Hakimova. – Toshkent : O'zbekiston nashriyoti, 1995. – 142 b. – ISBN 5-640-01616-7.
2. Воронина, В. Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – Москва : Государственное издательство архитектуры и строительства, 1951. – 168 с.
3. Материалы по истории и теории архитектуры Узбекистана. Выпуск 1 : сборник статей / отв. ред. В. Л. Воронина. – Москва : Изд-во и типография Академии архитектуры СССР, 1950. – 102 с.
4. Пугаченкова, Г. А. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент : Фан, 1981. – 232 с.
5. Писарчик, А. К. Народная архитектура Самарканда. – Москва : Наука, 1974. – 280 с.
6. Нильсен, В. А. У истоков современного градостроительства в Узбекистане. – Ташкент : Издательство литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1988. – 208 с.
7. Pavlovskiy, E. N. Ocherki Samarkandskoy oblasti // Istoricheskiy Vestnik. – 1911. – Dekabr. – S. 850–870.
8. Sadiqova, S. N. Kontsepsiya vuzrojdeniya sadovo-parkovogo iskusstva Temuridov v landshaftnoy arxitekture Uzbekistana : PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. – 150 s.
9. Adilov, Z. O'zbekiston shaharlari landshaft muhiti dizaynini kompleks tashkil etish : Monografiya. – Toshkent : Print World, 2021. – 172 b. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6868071>.

10. Raximov, K. D. Landshaft rejalashtirish : O'quv qo'llanma. – Toshkent : Barkamol fayz media, 2018. – 305 b. – ISBN 978-9943-5143-9-3.
11. Khushnazarova, M. G., Mardonova, X. A., Musayev, M. K., Tohirova, D. M. Short overview of the history of the Asian city Samarkand // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 2. – ISSN 2181-1385.
12. Aituganova, N., Vileikis, O., Babaev, S., Ausín, J. O. Traditional Bukharian Houses and Mahallas: A Shared Vernacular Heritage at Risk // International Conference on Vernacular Heritage: Culture, People and Sustainability. – Valencia, 2022. – DOI: <https://doi.org/10.4995/HERITAGE2022.2022.15605>.
13. Xamidova, M. S. Temuriylar davrining Movarounnahrda me'moriy yodgorliklari tarixi : Monografiya. – Toshkent : Nodirabegim, 2024. – 153 b.
14. Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti. Me'morchilik va qurilish muammolari (Problemi arxitekturi i stroitelstva). – Samarqand, 2016. – № 1.
15. Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti. Me'morchilik va qurilish muammolari (Problemi arxitekturi i stroitelstva). – Samarqand, 2017. – № 4.
16. Samarqand Davlat Arxitektura va Qurilish Instituti. Me'morchilik va qurilish muammolari (Problemi arxitekturi i stroitelstva). – Samarqand, 2019. – № 4.
17. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part I – Introduction and Historical Context : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2015. – 48 b.
18. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part II – Urban Structure and the Mahalla System : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2015. – 52 b.
19. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part III – Traditional Housing and Spatial Organization : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2017. – 57 b.
20. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part IV – Construction Methods and Material Culture : tadqiqot hisoboti /

University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2017. – 61 b.

21. Krugmeier, P. Samarkand's Mahallas: History and Culture Shape Living Urban Form. Part V – Economic and Social Dynamics of the Mahalla : tadqiqot hisoboti / University of Washington College of Built Environments. – Seattle : University of Washington, 2017. – 54 b.

22. Nosirov, J. Samarqand arxitektura va shaharsozligidagi madaniy o'zgarishlar 1868–1917 yillar misolida // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2025. – Vol. 5, № 1. – B. 153–158.

23. Holliss, F. Beyond Live/Work: The Architecture of Home-Based Work. – London ; New York : Routledge, 2015.

24. Sayers, J. Home Based Business // Encyclopaedia of New Venture Management / ed. M. R. Marvel. – London : Sage, 2012.

25. Kapasi, I., Galloway, L. Home-based Businesses: An Exploration of Business Model Heterogeneity // Journal of Business Models. – 2018. – Vol. 6, № 3. – P. 63–78.

26. Mason, C., Carter, S., Tagg, S. Invisible Businesses: The Characteristics of Home-Based Businesses in the United Kingdom. – Glasgow : University of Strathclyde, Hunter Centre for Entrepreneurship, Working Paper WP08-01, 2008.

27. Galloway, L., Kapasi, I. Rural Home-Based Businesses and Their Contribution to Rural Lives: An Exploratory Study. – Edinburgh : Heriot-Watt University, 2014.

28. Reuschke, D., Domecka, M. Policy Brief on Home-Based Businesses. OECD SME and Entrepreneurship Papers, № 11. – Paris : OECD Publishing, 2018.

29. Reuschke, D., Mason, C. The Engagement of Home-Based Businesses in the Digital Economy // Futures. – 2022. – Vol. 135. – Article 102542.

30. Huynh Tran Buu Loc, Dinh Quoc Phuong. Changes to Domestic Spaces and Home-Based Business in Ho Chi Minh City: A Case Study of Nguyen Thien Thuat Apartment Blocks // Home Cultures. – 2024. – Vol. 21, № 1. – P. 43–68. – DOI: 10.1080/17406315.2024.2347705.

31. Ayo-Odifiri, S. O., Emeana, R. C., Musa, A. W., Ukpabi, I. J., Ukah, O. T. An Investigation of Home-Based Businesses in Low-Income Residential Settlements of Owerri Urban, Nigeria // IOSR Journal of Humanities and Social Science. – 2022. –

Vol. 27, Issue 1, Series 7. – P. 29–39.

32. Agarwal, S., Sing, T. F., Song, C., Zhan, J. Liberalizing Home-Based Business // Management Science. – 2024. – Vol. 70, № 12. – P. 8301–8321. – DOI: 10.1287/mnsc.2021.04232.

33. Schutjens, V., Mackloet, A., Korteweg, P. J. Home-Based Business: Exploring the Place Attachment of Entrepreneurs : paper presented at the ERSA Conference. – Volos, Greece, August 30 – September 3, 2006.

34. Chen, D. The Flexible Housing System in China and Home Working During the Covid-19 Pandemic and Beyond : Master Thesis. – Turin : Politecnico di Torino, Department of Architecture and Design, 2021.

35. Moughtin, C. Urban Design: Street and Square. 3rd ed. – Oxford : Architectural Press, 2003.